



Yirik investitsiya loyihalarini sindikat kreditlari orqali moliyalashtirish

**Toshpo'latov Alisher
Kenjayevich**

Mustaqil tadqiqotchi

So'nggi yillarda tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va resurs bazasini kengaytirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorida samarali foydalanmoqda. Banklar bir tomondan, o'zlarining aksiya, obligatsiya va depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish orqali uzoq muddatli va nisbatan arzon resurslarni jalb qilsa, ikkinchi tomondan, ushbu bozordan sotib olingan qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarini joylashtirmoqda.

Tijorat banklari investitsiyalarni amalga oshirishda faqatgina daromadlilik darajasini emas, balki bank likvidligini saqlab turish masalasiga ham jiddiy ahamiyat qaratishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli kreditlarni asosan banklarning o'z kapitali va barqaror uzoq muddatli depozitlari hisobiga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv banklarda likvidlik bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan tijorat banklariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, mijozlarning investitsiya loyihalarini tashqi moliyalashtirish manbalarini kengaytirish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizning yirik tijorat banklaridan biri xalqaro moliya bozorida tanilgan yirik xorijiy bank bilan investitsiya loyihalarini sindikatlashgan kreditlar asosida moliyalashtirish bo'yicha yirik shartnoma imzoladi. Mazkur sindikatlashgan kreditlar asosan yangi sanoat va qurilish materiallari ishlab chiqarish, shuningdek, xorijiy investorlarni jalb qilgan holda o'rta biznes yo'nalishidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Bank sindikati – sindikatlashtirilgan kredit berish bo'yicha ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasidagi kelishuv bo'lib, bunda yetakchi bank ushbu kelishuv tashabbuskori sifatida ishtirokchi banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish va qarz oluvchining asosiy hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Yirik loyihalarni sindikatlashtirilgan kreditlar orqali moliyalashtirish amaliyoti xorijiy mamlakatlar banklarida juda keng tarqalgan^[4]. Shu sababli, O'zbekiston tijorat banklari ham ushbu ilg'or mexanizmdan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat banklarning investitsiya faoliyatini kengaytiradi, balki loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarni birlashtirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni o'zaro taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari,

sindikatashtirilgan kreditlash tizimi banklarning likvidligini saqlash, investitsiya loyihalari samaradorligini ob'ektiv baholash va loyiha amalga oshirilishi ustidan ta'sirchan monitoring olib borish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.


So'nggi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini barqaror rivojlantirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalarini tashkil etish, mavjud ishlab chiqarishlarga zamonaviy texnika-texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan yirik investitsion loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, bunday loyihalar katta hajmdagi moliyaviy mablag'larni talab qiladi. Shu bois yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy banklar bilan hamkorlik aloqalari doirasida sindikatashtirilgan kreditlar asosida qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Loyihalarni moliyalashtirish jarayonidagi hamkorlik natijasida xorijiy va mahalliy banklar o'rtasida investitsion risklarni kamaytirish, ularni doimiy monitoring qilish, loyihaning joriy holatini tahlil qilib borish va uning yakuniy natijalarini prognozlashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Banklarning investitsion faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri bu – investitsiya loyihalaridan kutilgan samaraga erishilmasligi xavfidir. Shu sababli, loyihani moliyalashtirishdan oldin uning samaradorligini puxta ekspertizadan o'tkazish, faqat iqtisodiy jihatdan asoslangan va yuqori samarali loyihalarga mablag' ajratish lozim¹. Bu holat bank likvidligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Amaliyotda turli noqulay omillar (masalan, bozor kon'yunkturasining keskin o'zgarishi, valyuta kursining beqarorligi, resurslar narxining oshishi) tufayli kutilgan natijaga erishilmagan investitsion loyihalar uchrab turadi. Bunday hollarda loyihaga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'larni, ayniqsa xorijiy valyutada olingan bank kreditlarini qaytarish bilan bog'liq jiddiy muammolar vujudga keladi. Bu esa naqd pul oqimlarining buzilishiga olib kelib, banklarning moliyaviy barqarorligiga, shuningdek, qarz oluvchi korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tijorat banklari investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish bilan bog'liq faoliyatiga alohida e'tibor qaratishi, samaradorlik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish asosida loyihadan kutiladigan natijalarni iloji boricha aniq prognoz qilishi zarur.

Yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni kamaytirishning eng samarali mexanizmlaridan biri bu – sindikatashtirilgan kreditlardir. Sindikatashtirilgan kredit bir nechta banklarning yirik loyihani birgalikda moliyalashtirishini anglatadi. Odatda, yirik investitsiya loyihasi deganda, uning umumiy qiymati tijorat bankining birinchi darajali kapitalining chorak qismidan (25 foizidan) ortiq bo'lgan loyiha tushuniladi. Bunday loyihalarni moliyalashtirishda sindikatashtirilgan kreditlash mexanizmi banklarga resurslarni birlashtirish, risklarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash, shuningdek, loyiha monitoringini birgalikda olib borish imkonini beradi.

Xorijiy banklar bilan birgalikda sindikatashtirilgan kreditlar asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

¹ Храменко, А.А. Оценка инвестиционной деятельности коммерческих банков / А.А. Храменко, А.С. Белоусова, А.А. Ефименко — DOI 10.24412/2304-6139- 2021-11259 // Вестник Академии знаний. — 2021. — № 44(3). — С. 291–297.



1-rasm. Xorijiy banklar bilan birgalikda sinditsiyalashtirilgan kreditlar asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi²

1. Loyiha tashabbuskori tijorat bankiga yirik kredit berishni so‘rab murojaat qiladi;

2. Bank kreditlash uchun mijozning kreditga qobiliyatligi, biznes-rejasi, kredit qaytarilishini ta‘minlanganligi Banklararo kredit byurosi ma‘lumotlari bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi; 3. Sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirishning mumkinligi to‘g‘risida kredit qo‘mitasi qaror qabul qilgan taqdirda boshqa banklarga (ishtirokchi banklar) loyiha tashabbuskori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni hamda investitsiya loyihasi bo‘yicha barcha kredit hujjatlarini taqdim etadi; 4. Ishtirokchi banklar sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashkilotchisiga (yetakchi bank) roziligini bildiradi, yetakchi bank bank sindikatini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi hamda investitsiya loyihasini birgalikda kreditlash borasidagi o‘zaro kelishuv loyihasi tayyorlaydi; 5. Yetakchi bank kredit shartnomasining yakuniy variantini ishlab chiqadi, barcha ishtirokchilar bilan muhokama qiladi va investitsion loyihani birgalikda kreditlash borasida bitim imzolaniadi; 6. Bank sindikati tuziladi va investitsion loyihalar moliyalashtiriladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditlar mexanizmi tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu mexanizm nafaqat resurslarni birlashtirish, balki risklarni diversifikatsiya qilish, kredit monitoringining samaradorligini oshirish va bank likvidligini saqlash kabi muhim afzalliklarni taqdim etadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan yirik sanoat, infratuzilma va innovatsion loyihalar ko‘lami orth borayotgan hozirgi sharoitda sindikatlashtirilgan kreditlashning o‘rni tobora ortib bormoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli sindikatlashtirilgan kreditlashning asosiy omillari quyidagilardan iborat: yetakchi bankning yuqori darajadagi ekspertiza va tashkiliy qobiliyati, ishtirokchi banklar o‘rtasidagi ishonch va axborot almashinuvining ochiqligi, shuningdek, kredit shartnomalarining huquqiy jihatdan mukammal ishlab chiqilganligi.

² Muallif ishlanmasi

Shuningdek, davlat tomonidan sindikatlashtirilgan kreditlarni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni – masalan, kafolat fondlarini tashkil etish, ayrim toifadagi loyihalar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash yoki soliq imtiyozlarini joriy etish – yo'lga qo'yish yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini jadallashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sindikatlashtirilgan kreditlar yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy, samarali va xavflarni boshqarishga qodir mexanizmi sifatida O'zbekiston bank tizimida keng qo'llanilishi lozim. Bu nafaqat alohida banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni sindikatlashgan kreditlarning narx belgilash modellari, kredit sindikatidagi agentlik munosabatlari va kredit risklarining optimall taqsimlanishi masalalariga qaratish maqsadga muvofiq.